



Received: January 3, 2022
Accepted: March 23, 2022
Available online: March 25, 2022

Ra'no Zaripova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston

LESYA UKRAINKA ASARLARINING O'ZBEK TILIDAGI TARJIMALARI

ANNOTATSIYA

Maqolada ukrain shoirasi Lesya Ukrainka asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari asliyat bilan chog'ishtirib o'rganilgan. Lesya Ukrainkaning erk va ozodlikka chorlovchi asarlari faqat ukrain adabiyotida emas, balki jahon adabiyotida ham o'z mavqeiga ega. Ukrainada eng yaxshi bolalar asarlariga Lesya Ukrainka nomidagi mukofot ta'sis etilgan.

Shoira asarlari ko'pgina o'zbek shoirlari tomonidan tarjima qilingan. Muallif ulardan o'n to'rttasini ta'kidlaydi. "Mag'oralarda" dramatik poemasi, "Bir so'z", "Ulkan bahodir haqida ertak" poemalari va ellikka yaqin she'rlarining o'zbek tiliga rus tili orqali tarjima qilinganligi bo'yicha tahliliy fikrlarini taqdim etadi, statistik ma'lumotlarni beradi. Uning ijodi va faoliyati, lirikasi bilan tanishish jarayonida o'zbek shoirlari Zulfiya, Shuhrat, Uyg'un, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sayyor, Rauf Parfi, Jumaniyoz Jabborov kabi ijodkorlarning tarjimonlik mahorati, usul va uslublarini qiyosiy o'rganadi.

Lesya Ukrainka ijodini o'rganish asnosida she'riy tarjimaga xos bo'lgan muhim xususiyatlar, tarjimalardagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi.

Tarjimada asar mazmuni, obrazlari, uslubini to'g'ri aks ettirish bilan birga undagi vazn, qofiya, ritmni qayta taqdim etishda tarjimonlar mahorati, ularning asliyat sehrini, jozibasini, ohangini, umuman olganda, she'r ruhini saqlay olish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratiladi. Muallif Zulfiya, Shuhrat, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov tarjimalarini shu nuqtai nazardan maxsus ko'rib chiqadi.

Lesya Ukrainka she'rlari tarjimasi shoirani va uning she'rlarini o'zbek kitobxoniga tanishtirish yo'lidagi muhim qadamlar ekanligi, biroq hali

Ra'no Zaripova

Independent Researcher, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: ranobonu51@mail.ru

UZBEK TRANSLATIONS OF LESYA UKRAINKA'S WORKS

ANNOTATION

The article compares the Uzbek translations of Lesya Ukrainka's works, the Ukrainian poetess, with the original. Her works calling for freedom and liberty have a reputation not only in Ukrainian literature, but also in world literature. The Lesya Ukrainka's Award for the best children's works in Ukraine has also been established.

The poet's works have been translated by many Uzbek poets. The author of the article mentions fourteen of them. He statistically analyzes the dramatic poem "In the Caves", the poems "A Word", "A Tale of the Great Hero" and about fifty poems translated into Uzbek through Russian. In the process of getting acquainted with her work and lyrics, translations undertaken by Uzbek poets Zulfiya, Shuhrat, Uyg'un, Erkin Vahidov, Abdulla Aripov, Sayyar, Rauf Parfi, Jumaniyaz Jabborov the researcher comparatively analyzed their translation skills, methods and techniques of their work.

In line with the study of Lesya Ukrainka's work, important features of poetic translations, achievements and shortcomings of those translations are analyzed.

In addition to accurately reflecting the content, images and style of the work, the translation pays special attention to the skills of translators in re-presenting the weight, rhyme, rhythm, their original magic, charm, tone, and, in general, the spirit of poetry. Translations by Zulfiya, Shuhrat, Erkin Vahidov, Abdulla Aripov are also considered.

It is mentioned that the translation of Lesya Ukrainka's poems is an important step in introducing this poetess and her poems to Uzbek readers but it is still necessary to translate several

uning bir qancha she'riy turkumlarini, yirik dramatik asarlarini hamda "O'rmon qo'shig'i" deb nomlangan shoh asarini va albatta, nasriy asarlarini tarjima qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Maqolada Rauf Parfi, Jumaniyoz Jabborov, Sayyor, Ma'ruf Jalil kabi shoirlar tomonidan o'g'irilgan Lesya Ukrainka she'rlarining tarjimalari ham tahlil qilinib, tarjimachilik sohasidagi yutuq va kamchiliklar ko'rsatib berilgan. Aniqlangan yutuq va kamchiliklar haqidagi xulosalar tarjimashunoslikdagi ba'zi nazariy masalalarni o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tarjima, shoir, adabiyot, talqin uslub, zamon, she'riyat, qalam, xalq, hayot, ijod.

of her poems, major plays and the work "Forest Song" and prose as well.

The article analyzes the translations of Lesya Ukrainka's poems done by Uzbek poets such as Rauf Parfi, Jumaniyoz Jabborov, Sayyor, Maruf Jalil, and highlights the achievements and shortcomings of their translations. Conclusions about the identified successes and shortcomings help to study some theoretical issues in translation studies.

Key words: translation, poet, literature, style of interpretation, time, poetry, pen, people, life, creativity.

KIRISH

Shoira Lesya Ukrainka va zamon. Lesya Ukrainkaning erk va ozodlikka chorlovchi asarlari faqat ukrain adabiyotida emas, balki jahon adabiyotida ham katta shuhratiga ega.

Ukrain yozuvchisi, shoir, olim va publitsist Ivan Franko Lesya Ukrainka haqida shunday degan edi: "Shevchenkoning "Ko'ming-u, qo'zg'ang isyon, kishanlar chil-chil bo'lsin!" deganidan buyon Ukrainada ana shu zaif, bemor qizning tilidagidek qudratli, otashnafas, shoirona so'zlar eshitilmagan edi" [Inog'omov R., 1971].

Darhaqiqat, shoira o'z asarlarida Ukrainaning keng dalalarini, tabiatini, oddiy mehnatkash xalqini to'lib-toshib kuyladi. Shuning bilan birga uning asarlarida o'zi sayohatga borgan, ma'lum muddat yashagan Italiya, Germaniya, Angliya, Chexiya, Misr kabi mamlakatlar xalqlarining zahmatli hayotini, buyuk tarixini ko'ramiz. Adiba xalqlar birligi, ahilligi va tinchligida katta haqiqat va ezgulik borligiga ishondi. Bu xalqlarning dardini o'zinikidek bildi. U butun hayotiga, ijodiga ana shu qadriyatlarni singdirdi. Shuning uchun ham uning asarlari faqat ukrain xalqigagina emas, butun jahon xalqlarining yuragiga yaqin va aziz tuyuladi.

Shoiraning asarlari o'zi hayotligidayoq jahon tillarida yangray boshlagan edi. 1890-yildan rus, chex, polyak matbuotida o'zining maqolalari bilan qatnasha boshladi. Uning asarlarini nemis kitobxonlari 1916-yili, amerikaliklar 1917-yilda o'z tillarida o'qigan edilar.

Yigirmanchi asrda shoira ijodiga bo'lgan qiziqish xorijiy mamlakatlarda yanada kuchaydi. Germaniyada shoiraning shoh asari – "O'rmon qo'shig'i" alohida kitob bo'lib chiqdi. Nemis adabiyotshunoslari bu asarni "xalqchillikning yorqin timsoli" deb baholadilar [Oxrimenko P.P., Oxrimenko O.G., 1970; 32].

Chex va bolgar tillarida uning sara asarlari jamlangan bir tomlik kitobi chop qilindi. Lesya Ukrainkaning hayoti va ijodi haqida ham bir qancha adabiy-tanqidiy maqolalar e'lon qilingan. Jumladan, shoira vafotiga 40 yil to'lgan kunlarda uning xotirasiga bag'ishlab maqolalar e'lon qilindi. Chex adabiyotshunoslari Irji Bubla va Skukalek shoira asarlarini o'rganib maqolalar chop ettiradilar. Irji Bubla "O'rmon qo'shig'i" asarini "slavyan adabiyotining eng go'zal namunasi" deb baholaydi [Oxri-

menko P.P., Oxrimenko O.G., 1970; 33].

1971-yili YuNESKOning qaroriga muvofiq, jahon jamoatchiligi tomonidan bashariyat baxtining tolmas kuychisi, betakror shoira, adiba, dramaturg va adabiyotshunos olima, ukrain xalqining qahramoni Lesya Ukrainka tug'ilgan kunning 100 yilini keng nishonlandi.

Uning yubileyiga bag'ishlangan tantanali kecha 1-martda Moskvada o'tkazildi. Ukrain qizi, buyuk shoiraga chuqur harmat va muhabbatning bir timsoli bo'lgan tantanali kechani yozuvchi Nikolay Tixonov ochib shunday degan edi: "Lesya Ukrainkaning yubileyi – buyuk poeziya tantanasi kuni bo'lib tarixga kirdi... Hozirgi kunda butun jahonda Lesya Ukrainka asarlari yangramoqda. Shoira ovozi shu kunda ham xalqaro birdamlik, do'stlik, baxt-saodat uchun kurashga chorlab turadi" [Tixonov N., 1971].

Gruzin shoirasi Marika Baratashvili shunday deb yozgan edi: "Gruziya ham shoiraning yubileyini juda katta quvonch bilan nishonladi. Agar men ukrain qizi bo'lmaganimda, gruzin qizi bo'lishni istardim degan Ukrainkaning otashin so'zlarini biz o'zimiz uchun katta lutf deya faxr bilan tilga olamiz" [Baratashvili M., 1971].

Ukrainkaning 100 yilligi nishonlangan kechada uning yorqin siymosini yanada abadiylashtirish maqsadida ukrain bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalari uchun "Lesya Ukrainka" mukofoti ta'sis etildi.

ASOSIY QISM

Lesya Ukrainka va o'zbek adabiyoti. O'zbek kitobxonlari shoiraning asarlari bilan ilk bor 1961-yili Erkin Vohidov tarjimasidagi "O'tmish ertagi" she'rlar to'plami tufayli tanishishga muvaffaq bo'ldilar. Lesya Ukrainka asarlari o'zbek kitobxonlariga uning 100 yilligi munosabati bilan keng tanishtirildi.

Shoira asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda o'zbek adiblaridan asosan o'n to'rtta ijodkorning mehnatini ta'kidlash mumkin. Ular tomonidan "Mag'oralarda" dramatik poemasi, "Bir so'z", "Ulkan bahodir haqida ertak" poemalari va ellikka yaqin she'r o'zbek tiliga rus tili orqali tarjima qilindi. Bunda Zulfiya, Shuhrat, Uyg'un, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sayyor, Rauf Parfi, Jumaniyoz Jabborov kabi o'zbek shoirlarining xizmatlari ko'p.

G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti shoiraning saralab olingan she'r va poemalaridan iborat "Tanlangan asarlar"ini o'zbek tilida chop qildi. To'plamga shoiraning Abdulla Oripov tarjimasidagi "Mag'oralarda" deb nomlangan yirik dramatik poemasi ham kirgan.

Lesya Ukrainkaning yuz yillik yubileyi munosabati bilan o'zbek tilida uning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan bir qancha ilmiy maqolalar ham e'lon qilindi. Masalan, "Sovet O'zbekistoni" gazetasining 1971-yil 25-fevral sonida filologiya fanlari nomzodi Rahmatulla Inog'omovning "So'nmas iste'dod" maqolasi, "Toshkent oqshomi" gazetasining 1971-yil 25-fevral sonida shoir Shuhratning maqolasi e'lon qilindi.

G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti adabiyotshunos Asil Rashidovning "Леся Українка" nomli kitobini chop etdi.

Lesya Ukrainka hayoti va ijodi. Shoiraning onasi Yelena Petrovna Kosach o'z davrining taniqli yozuvchisi edi. Yelena Pchilka taxallusi bilan irod qilgan. Tog'asi Mixail Dragomanov mashhur tarixchi va publitsist edi.

Lesyaning yoshligi Kolodyajniy qishlog'ida, otasining mulkida o'tadi. Bu yerda qishloq mehnatkashlarining zahmatli hayoti va turmushini ko'radi. Ulardan erkparvarlik, insoniylik ruhiga sug'orilgan xalq qo'shiqlari, afsona va ertaklarini tinglaydi. U o'zining ijodida ana shu bolalik xotiralariga qayta-qayta murojaat etadi.

Uning hayoti og'ir kechdi. O'n bir yoshida suyak sili kasaliga duchor bo'lgan Lesya Ukrainka umr bo'yi dard chekib o'tdi. Davolanish maqsadida Italiya, Misr, Bolgariya, Shveysariya, Chexoslovakiya, Germaniya, Gruziya kabi bir qancha mamlakatlarda bo'ldi.

Kasalligi bois biror joyda rasman ta'lim olmadi. Ammo, mustaqil ravishda adabiyot, chet tili, tarix, geografiyani qunt bilan o'rgandi. Bolaligidan A.Pushkin, M.Lermontov, Saltikov-Shchedrin, I.Turgenev, N.Nekrasov, T.Shevchenko, Genrix Geyne asarlarini sevib o'qidi.

Ukrainka, ayniqsa, Taras Shevchenko va Ivan Franko ijodini sinchiklab o'rganagan edi. Shu bois ularning she'rlaridagi ilg'or an'analarni yangi sharoitda, izchillik bilan davom ettirishga muvaffaq bo'ldi.

Shuningdek, u o'sha davrda mashhur bo'lgan "Жизнь" jurnalini o'qib borar va maqolalari bilan ham qatnashib turardi. Jurnalda uning "Eng yangi italyan adabiyotida ikki xil yo'nalish", "Bukovinadagi malorus yozuvchilari", "Yangi istiqbol va eski g'oyalar", "Eng yangi polyak adabiyoti haqida qaydlar" maqolalari e'lon qilinadi.

Lesya Ukrainka o'z davrining bilimdoni, yuksak madaniyatli inson bo'lib yetishdi. U qalbi nimani buyursa shuni yozdi. O'zi bu xususda shunday degan edi: "Erkin shoir va erkin yozuvchi deb kimlarni aytilish mumkin? Hayotda o'zlarini hayratlantirgan, ularni ovuntirgan yoki hayajonlantirgan hodisalarni yozmasdan turolmaydigan kishilarnigina aytilish mumkin!" [Rashidov A., 1971].

Shoira o'n uch yoshidan boshlab matbuotda ko'rina boshladi. "Marvaridgul", "Safo" uning dastlabki bosilib chiqqan she'rlaridandir. 1893-yili ustozl Ivan Franko yordamida birinchi – "Qo'shiqlar qanotida" to'plami nashr etildi. Unga Qrimda davolanib yurganida yozgan "Qrim xotiralarl" turkumidagi she'rlari kirgan. Ikkinchi to'plami – "O'ylar va orzular" 1899-yili, uchinchi to'plami – "Aks sadolar" 1902-yili nashr etildi. U lirik she'rlarini turkum qilib yozishni yoqtirardi. Har bir turkumga kirgan she'rlar o'z mazmuni, ruhi, ijtimoiy-siyosiy fikrlari bois bir-biriga yaqin. "Daryoga sayohat", "Qrim xotiralarl", "Yo'l daftaridan", "Erk haqida qo'shiq", "Kuz haqida qo'shiq", "Erksizlik qo'shiqlari", "Qrim sadolari", "Marvarid yoshlar" shular jumlasidandir.

Shoira asarlarida o'zi ko'rgan mamlakatlarning xalq og'zaki ijodidan keng foydalanadi. Turli xalqlarning turfa rivoyatlari, urf-odatlarini haqqoniy bo'yoqlarda qayta jonlantiradi. "Tutun", "Misrda bahor", "Asrlar afsonasi" kabi she'rlarida mustaqillik uchun kurash, xalqlar do'stligi, millatlar hamdamligi masalasi aks etgan.

Ukrainka ezgulik va yomonlik, erk va ozodlik mavzusini yoritishda tarixiy va afsonaviy shaxslarga murojaat qiladi. Afsonaviy yunon qahramoni Prometey, bahodir

Spartak kabi buyuk siymolar vositasida shoira erkni, ozodlikni ulug'laydi. "Do'stim-ga esdalik", "Bas, endi zulmat" asarlari shular jumlasidandir.

U "Xushchaqchaq pan", "Ishbilarmon pan", "Pan siyosatdon" kabi hajviy she'r-lar ham yozdi.

Shoira o'zining yirik badiiy asarlarida ham xalq og'zaki ijodidan juda o'rinni foydalangan. "Ulkan bahodir haqida ertak", "O'rmon qo'shig'i" shular jumlasidandir.

Shoira poemalarining aksariyati o'tmish mavzusiga bag'ishlangan. Lekin u xalq tarixining shunday jangovor sahifalarini tanlab olib tasvirlagan va shu orqali o'z zamonasining ruhini ifodalab berolgan. Masalan, "Изоolda белорукая" poemasi o'rta asrdagi fransuzlar hayotidan olib yozilgan. "Vila-posestra" asari serb xalq ertaklari-ning ruhi, qahramonlari asosida bitilgan. "Shotlandiya qiroli Robert Bryus" poemasi o'rta asrlardagi hayot voqealarini aks ettiradi. Ukrainaning "Oysha va Muhammad", "Telba", "Bobil asiri", "Kuz ertagi", "Xarobaliklarda", "Kassandra", "Advokat Mar-tian", "Orgiya" kabi bir qancha dramalari ham bor.

Ushbu asarlar asosan uzoq o'tmish mavzusida yozilgan bo'lsa-da, ular muallif zamonasidagi kurashuvchan ruhiyat bilan uyg'unlashib ketgan.

Shoira 1913-yil 1-avgustda Gruziyaning Surami shahrida vafot etdi.

Lesya Ukrainka asarlari o'zbek tilida

Lesya Ukrainka asarlarini o'zbek shoirlari rus tili orqali tarjima qildilar. Lesya Ukrainaning rus tilidagi asarlari asosan sillobo-tonik va sillabik tizimda yozilgan. O'zbek tiliga esa asosan barmoq vaznida tarjima qilingan, asliyatdagidek oq she'r formasida tarjima qilinganlari ham bor.

Ukrainka she'rlari orasida ikki marta tarjima qilinganlari ham bor. Jumladan, "Umid" she'rini Zulfiya, Erkin Vohidov tarjimalarida, "Umid kutaman" she'rini Zul-fiya, Shuhrat tarjimalarida, "Tush" she'rini Mirtemir va Muhammad Nosir tarjima-larida, "Erk haqida qo'shiq" she'rini Uyg'un va Jumaniyoz Jabborov tarjimalarida, "Meni sizga ojiz degan kim?" she'rini Sayyor va Muhammad Nosir tarjimalarida o'qishimiz mumkin. Ukrainaning ko'p she'rlarini Zulfiya, Erkin Vohidov, Shuhrat, Abdulla Oripov o'zbek tiliga muvaffiyat bilan o'giranlar. Ularning tarjimalari asliyat ruhiga juda yaqin.

Shoiraning "Erk haqida qo'shiq" nomli turkumida "Odamlar borar, bayroq hil-pirar", "Nagaechka, nagaechka", "Baynalminal gimn qaerdan oqadi" kabi bir necha she'rlari mavjud. Bulardan "Odamlar borar, bayroq hilpirar" she'rini Uyg'un ham, Jumaniyoz Jabborov ham tarjima qilgan. Tarjimonlarning har ikkisi ham she'rning nomini turkum nomi bilan ataydi [Ukrainka L., 1972].

Ikkala tarjimon ham she'r mazmunini to'liq berishga harakat qilgan va bunga erishgan ham. Jumaniyoz Jabborov asl nusxaning barcha bandlarini to'liq tarjima qi-ladi. Ammo, Uyg'un tarjimasida birinchi baddan keyingi uch band tashlab ketilgan.

Tarjimonlar barmoq vaznini tanlab olishgan. Uyg'un 11 bo'g'inli (3-3-5) – original bo'g'inlarga teng barmoq vaznini, Jumaniyoz Jabborov 14 (7-7) bo'g'inli barmoq vaznini tanlagan. Uyg'un asliyatning har misrasida to'rtta urg'uning qaytari-lishini hisobga olib, tarjima misralaridagi so'zlarni ham to'rtta turoqqa ajratadi. Ya'ni unda shoira asaridagidek to'rtta pauza mavjudligini kuzatamiz.

Odamlar / boradi, / bayroqlar / cho‘g‘day/
Lovullab / hilpirab, / qalin/ olomon/ [Ukrainka L., 1972].

Jumaniyoz Jabborov tarjimasida esa misralar asliyatdagiga nisbatan cho‘zilib ketgan.

Olamon / qalin / oqar / ko‘chganday / go‘yo tutun/,
Boshlar / uzra/ bayroqlar / bamisoli / cho‘g‘/ gulgun/ [Guliston, 1971].

Shoira “Tush” she’rida xalq qo‘zg‘oloni haqida fikr yuritadi. Insoniyatning ozodligi, baxti uchun kurashadigan isyonkor qalb egasi bo‘lgan inson obrazini yaratdi. Bu she’rning Mirtemir va Muhammad Nosirga mansub tarjimalari bor. Har ikki tarjimon ham she’r mazmun-mohiyatini ochib berolgan. She’r shakli va ohangini kitobxonga yetkazishda ikki tarjimon ikka xil yo‘l tanlagan. Asliyat to‘rt turoqli daktil vaznida yozilgan oq she’rdir. Shu bois tarjimonlarning ikkalasi ham uni oq she’r shaklida o‘g‘irganlar. Urg‘ularning tekis takrorlanishi, qofiyaning mavjud bo‘lmasligi, bu – oq she’rning asosiy xususiyati. Mirtemir asl nusxaning har misrasidagi to‘rtta urg‘u takrorlanib kelishi hodisasini o‘z tarjimasida har bir misrani to‘rt turoqqa bo‘lib, pauza orqali ifodalash bilan bu xususiyatlarni saqlay olgan. Asliyatdagi tekis urg‘u takrorlanishi tarjimada bo‘g‘inlarning tekis takrorlanishi orqali berilgan [Ukrainka L., 1972].

Muhammad Nosir tarjimasida asliyatdagi bu xususiyatlar ko‘rinmaydi. Misralardagi bo‘g‘inlar sonining ham turlicha berilishi tarjima matnning asliyat ruhiyatidan biroz uzoqlashib ketganligini ko‘rsatadi. Ammo, tarjimon kuchli stilistik bo‘yoqlardan foydalangan [Shuhrat, 1971].

Biroq Muhammad Nosirning sinonimlardagi stilistik bo‘yoqlarni chuqur his qilishi “Кто вам сказал, что я хрупка” she’ri tarjimasida ko‘zga tashlanmaydi.

Tarjimon Muhammad Nosir “Кто вам сказал, что я хрупка” she’rini “Nozik deya kim aytdi meni” deb tarjima qilgan. Shoira bu o‘rinda o‘zini ojiz deb ataganlarning so‘zini inkor qiladi. Qachonki, mening “ovozim” zaif chiqsa, qachonki, hayot bilan kurashmay qo‘ysam, shundagina meni ojiz deb atang degan mag‘rur fikr, maqsad yotadi she’r g‘oyasida. Bizningcha, bu o‘rinda nozik so‘zidan ko‘ra ojiz so‘zini qo‘llash o‘rinliroq. Chunki, shoira og‘ir kasalga muftalo bo‘lib, bir umr nogironlar aravasiga bog‘lanib qolgan edi. She’r ana shu ruhiyatdan kelib chiqib yozilgan [Shuhrat, 1971].

“Не любуйся на месяц весною” romansining Ma’ruf Jalil tarjimasida ham muayyan kamchiliklar uchraydi. Shoira ushbu romansda aldangan sevgi haqida kuylaydi. She’r chiroyli o‘xshatishlarga, jozibaga boy. Ammo, tarjimada she’riy jo‘shqinlik sezilmaydi.

Ikkinchi bandning dastlabki ikki misrasi esa butunlay noto‘g‘ri tarjima qilingan. “Beryoza plakuchiy” deb, aslida, shoxlari pastga qarab o‘sadigan qayinga aytiladi. Tarjimon esa uni “Qarama qayinga dubora” deb tarjima qiladi. Shoira “beryoza plakuchey”ni ishlatish bilan ham ularning do‘stlashuviga sababchi bo‘lgan narsani eslatmoqchi, qayinning pastga egilgan shoxlari tasvirida yetim qolgan sevgisiga ishora

bor. Shu o'rinda "берёза плакучей" o'rniga majnuntolni qo'llash mumkin edi. Keyingi misrada "Qayg'uli shoxlari" ifodasi kelgan. Qayg'uli shoxlar ham bo'ladimi? Undan keyingi ikki misrada esa "g'amgin" so'zi ketma-ket qo'llangan [Ukrainka L., 1972].

Shoir To'lqin tomonidan tarjima qilingan "Dengiz sokinligi" she'rida ham no-o'rin qo'llanilgan so'zlar uchraydi. Bu tarjimada "tiniq quyosh" o'rniga "porloq" so'zini ishlatish mumkin edi. Axir o'zbek tilida tiniq quyosh ifodasi yo'q-ku. Osmon tiniq, musaffo bo'lishi mumkin. Bizningcha, tarjimon bu ifodadan she'r ohangini ta'minlash maqsadida foydalangan bo'lsa kerak [Ukrainka L., 1971].

Tarjimada she'rdagi sifatlashlarni o'xshatish va jonlantirish kabi san'atkorona qayta ifodalay olganlikni M. Mahmudov tarjimasidagi "Malham" she'rida ko'rish mumkin [O'zbekiston, 1971].

"Дама" so'zini bir joyda "bekam", boshqa o'rinda "erkam" deya, sifatlashni kuchaytirgan holda o'giran tarjimon she'r mazmunini aniq ifodalashga erishgan. "Зажмет покрепче" ifodasini aynan o'girmasdan, "gul yanglig' titrasin" tarzida sifatlashni kuchaytirib o'girilgani tarjima yutug'ini ta'minlagan.

"To'la ma'nodagi tarjimaning asosiy sharti – asl nusxaning badiiy o'ziga xosligini – uning milliy xususiyatlarini va muallifning o'ziga xos ijodiy an'alarini bera bilish deb hisoblash kerak. Biroq, bu qoidaga har doim ham rioya qilinavermaydi. Hatto, asarning mazmunini, davr ruhini aniq bera oladigan malakali tarjimonlar ham muallifning o'ziga xos ijodiy xususiyatlarini to'liq berolmaydilar. Ko'p hollarda esa bunga intilmaydilar [Aznaurova E.S., 1952].

Lesya Ukrainka va Zulfiya. Zulfiya ijodiy merosining muayyan qismini tarjima asarlar tashkil qiladi. Pushkinning ijtimoiy-siyosiy asarlari, Lermontovning jo'shqin lirikasi, Vera Inberning mag'rur, o'ychan misralari, Nikolay Tixonovning obrazlilikka boy ijodi, Demyan Bedniyning o'zbek ayoli haqida yozgan jo'shqin poemasi, Nekrasovning isyonkor ruhdagi bir qancha she'rlari va "Rus ayollari" poemasi, jahon adabiyotidan o'rin olgan Shevchenko, arman adibi S Koputikyan, litva shoirasi Solomeya Nerisning bir qancha she'rlari Zulfiya qalami bois o'zbek kitobxoniga yetib bordi. U tarjima sohasida o'zining mahorat maktabini yaratdi. Buni Lesya Ukrainka ijodidan qilingan tarjimalar misolida ham ko'rish mumkin.

Ukrainka asarlarining o'zbek tiliga o'girilgan eng go'zal tarjimalari shoir Zulfiya qalamiga mansub. Zulfiya Lesya Ukrainkaning to'qqizta she'rini o'zbek tiliga o'giran.

Ustoz Zulfiya o'z tarjimasida asliyatning mazmunini berish bilan birga she'rning shakliga ham katta e'tibor qaratadi. Asliyat ruhini, ohangini, ritmini, bor jozibasini berishga muvaffaq bo'ladi. Zulfiya bu she'rlarni o'zbek tiliga barmoq vaznida tarjima qilgan. Shuningdek, ikkita oq she'r ham barmoq vaznida o'girilgan. Garchi barmoq vaznida tarjima qilingan bo'lsa-da, tarjimon ularda ukrain she'riyatiga xos ohangni berishga muvaffaq bo'lgan.

Shoira Zulfiyaning san'atkorona tarjima qilgan she'rlardan yana biri, bu – "Umid"dir [Ukrainka L., 1972].

Unda mazmun va shakl uyg'unligi yaqqol ko'rinadi. Asliyatda bu she'r silla-

bik she'r hisoblanadi. Bunday she'rga xos xususiyatlar o'zbek adabiyotidagi barmoq vazniga ancha yaqin. Sillabik she'r misralarda hijolarning teng miqdorda bo'lishiga asoslanadi. Misralar juft-juft, ya'ni o'zbek tilidagi masnaviy kabi qofiyalanadi. Ko'pincha, qofiya ikki bo'g'unli bo'lib, urg'u ikkinchi hijoga tushadi. Bunday qofiya rus she'riyatida "женская рифма" deyiladi va bunda: a) she'rning har misrasi o'n bir bo'g'indan iborat; b) urg'ular soni har misrada to'rtta; v) masnaviydek qofiyalangan; g) doimiy turoqning 5 yoki 6 bo'g'indan keyin kelishi; d) har bir misraning to'rt qismiga bo'linishi, ya'ni to'rtta pauza bo'lishi talab qilinadi.

Ни доли / ни воли / судьбой / не дано,
Одной лишь / надеждой / мне жить / суждено [Ukrainka L., 1956].

Tarjimada: a) bo'g'inlar soni asliyatdagidek 11 ta (6–5); b) asliyatdagidek juft qofiyalangan; v) doimiy turoq asliyatdagidek 6 bo'g'indan keyin keladi; g) hatto har misradagi to'rtta pauza ham saqlangan:

Na tole / na hurlik / bermadi / hayot/
Faqat / umid bilan / yashayman, / hayhot/ [Ukrainka L., 1972].

Hatto, tarjimon ko'pgina misralarda qofiyaning rus tilidagidek 2 bo'g'indan iborat bo'lishiga erishgan. Bular Ukrainka she'rlari ruhini, ritmini berishga juda mos kelgan.

Tarjimon Zulfiyaning asliyat ruhini, mazmunini uyg'unlashtirib mahorat bilan ifodalay olganligini "Marvarid yoshlar" turkumidagi "Oh, o'lkam!" – "О милая родина" she'rida ham isbotlaydi.

Tarjimonning bunday mahorati "Kuylarim" (Слово мое, почему ты не стало) she'rida ham ko'rish mumkin.

Bu she'rni o'sha davrning yosh shoiri Abdulla Sherov (Abdulla Sher) ham tarjima qilgan edi [Sherov A., 1971]. U ham she'r mazmunini, qisman bo'lsa-da, uning ruhini berolgan. Ehtimol so'z boyligi kamligi bois, hali so'z tanlashda, o'xshatishlar tarjimasida rang-baranglikni ko'rmaymiz. Masalan, "слово мое" ifodasi Zulfiyada "kuylarim" deb qo'llanilgan bo'lsa, Abdulla Sherov uni "so'zlarim" deb o'giradi. Mazmunan olganda, ikkalasi ham to'g'ri, ammo ikkinchisida stilistik bo'yoq, jarangdorlik kamroq. Zulfiya "Кинжал"ni "Shamshir" deb o'girsas, ikkinchi tarjimon uni "qilich" so'zi bilan ifodalagan. Ma'lumki, shamshir to'g'ri tuzilishga ega va uning dami ikki tomonlama. Qilich esa egik va u bir tomonlama kesadi (chopadi). Ikkinchidan, shamshir szo'zida poetik bo'yoq kuchliroq.

Shuningdek, ikkinchi banddagi "klinok" so'zini birinchi tarjimon "tig'" deb mazmunan to'g'ri qo'llagan bo'lsa, ikkinchi tarjimon "xanjar" deb o'giradi. Bu kabi qiyoslar Zulfiyaning tarjimada so'zlarni bor bo'yoqlari bilan berishga erishganini namoyon qiladi.

Tarjimada shakl va mazmun uyg'unligi "Oqshomdagi soatda" ("Вечерний час"), "O'tgan bahor" ("Давняя весна") kabi she'rlarda ham ko'rinadi.

Shoira Zulfiya o'z tarjimalarida Lesya Ukrainaning o'zi she'rlarida nechta bo'g'in va qancha so'zdan foydalangan bo'lsa, tarjimada ana shunday miqdordagi bo'g'in va so'zlarni qo'llashga harakat qilgan. Hatto, so'zlar orasidagi pauzalarga

ham e'tibor qilgan.

Xulosa qilib aytganda, shoira Zulfiya tarjimalari eng go'zal ijod namunalaridan sanaladi. U tarjimon sifatida asliyat ruhi, ohangi va ritmini mazmun-mohiyat bilan uyg'unlashtirib taqdim etolgan.

Ukrinka asarlari Erkin Vohidov tarjimasida. Shoiraning she'rlarini muvaffaqiyat bilan tarjima qilganlardan yana biri – katta iste'dod egasi Erkin Vohidovdir. Erkin Vohidov shoiraning o'nta she'rini hamda “Ulkan bahodir haqida ertak”, “Bir so'z” nomli poemalarini tarjima qilgan. Lesya Ukrainaning “Bolalar qo'shig'i” deb nomlangan turkumidan bir qancha she'rlarni ham o'zbek kitobxonlariga taqdim etgan [Yosh gvardiya, 1961]. Shoira bu turkumini bevosita dehqon bolalari orasida eshitgan qo'shiqlari ta'sirida yaratgan edi. Bu she'rlarda xalqchillik, xalq og'zaki ijodiga xos o'ynoqlik, ifodada ravonlik sezilib turadi.

Tarjimon ham ushbu turkumdagi xalqona ruhni ifodalash maqsadida o'zbek xalq og'zaki ijodida keng qo'llaniladigan 7 va 5 bo'g'inli vaznlardan foydalangan. Misralardagi turoqlar esa asliyatdagidek goh 3 ta, goh esa 2 tani tashkil etadi.

Darhaqiqat, O.Visotskaya aytganidek, tarjimon bu she'rlarni asl manba ohangiga moslab, o'zbek tilida barmoq vaznida qaytadan yaratgan. “Gilos” (“Черешенки”), “Qushchalar nega quvnoq” (“Мама, зима настанет”), “Qish kelganda” (“Лето красное минуло”), “Alla” (“Тешься играет пока детство не минет”) kabi she'rlarni o'g'irgan. Tarjimon she'rlar sarlavhalarini ham o'zgartirgan.

Bu yangi sarlavhalarni asliyatdagi she'r mazmunidan olgan. “Мама, зима настанет” she'ri qushchalarning shoxdan-shoxga sakrab, yayrab kuylashlaridan boshlanadi. Ularning quvonchi bahoriy nasimlar, go'zalliklarga bog'lab tasvirlanadi. O'zbek tilidagi “Qushchalar nega quvnoq?” sarlavhasi she'rning dastlabki misrasidan oladi.

Mazmun va shakl mahorat bilan uyg'unlashtirilganini katta asar tarjimasi – “Ulkan bahodir haqida ertak” poemasi ham ko'rishi mumkin.

Ushbu poemaga xalqning porloq kelajagiga bo'lgan ishonch g'oyasini singdirilgan. Ertak-dostonning bosh qahramoni – xalq. Asarda shoira xalq og'zaki ijodidagi romantik obrazlarda foydalangan. Ertak qahramoni bahodir – mehnatkash xalq. Uni uxlatib tashlagan sehrar – zulmkor kuchlar. Muallif ulkan bahodir bir kun asriy uyqudan uyg'onib, zulmkorlar ustidan g'alaba qozonishiga ishonch bilan poemasini yakuniga yetkazadi.

Ushbu she'r uch turoqli yambda, xalq og'zaki ijodi ruhida bitilgan va u a-b-v-b shaklida qofiyalanadi. Tarjimon she'rning ohangi, ritmi ochib berish uchun, birinchidan, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi kam bo'g'inli vazndan foydalanadi hamda 7 (4 – 3) bo'g'inli vaznni tanlaydi. Ikkinchidan, qofiyalash tizimi ham asliyatdagidek a-b-v-b shaklida keladi. Uchinchidan, misralardagi pauzalar, ya'ni turoqlar ham 3 ta va 2 ta. O'ziga xos o'xshatishlar o'zbek tilida ham mahorat bilan berilgan.

*В тот час, когда закат пылал
Пожаром за горюю.*

Tarjimada:

*Oqshom ufq qo'ynida
O't yoqar edi gulgun.*

Asliyatdagi “К глубоким ранам торопясь, Припали жадно ртами” o'xshatish o'zbek tiliga shunday o'giriladi:

*Zulukday yopishdilar
Yovuzlar majruh tanga.*

Asl manba 108 misradan iborat. Tarjimada esa misralar 104 tani tashkil qiladi. Bunga sabab – tarjimonning birgina so'zni boshqacharoq tarjima qilganidadir. “Божья кара” tarjimada “sehrgar” deb o'girilgan. Natijada, shu bandlarning mazmunini bir oz o'zgargan. Tarjimada “Божья кара”ning “sehrgar” tarzida berilishi keyingi bandga ehtiyojni yo'qotgan. Ruscha-o'zbekcha lug'atda “Bojya kara” “Allohning la'nati” deb o'girilgan. Sehrgarlik ham aslida la'natlangan faoliyat, ya'ni mantiqan to'g'ri tarjimadir.

Shuningdek, “божий дар” birikmasini tarjimon “orom” deb o'giradi. Asliyatdagi “bojiy dar” o'zbekcha – xalq tilida “Allohning inoyati” ma'nosini ifodalaydi. Uni “Allohning in'omi”, deb o'girish ham mumkin edi. Ammo, “orom” deb o'girish ham xato emas. Osoyishtalik bor joyda tinchlik bo'ladi, orom bo'ladi, qut-baraka bo'ladi. Shuningdek, she'riyatda mazmunga mos ohang va shakl taqozo etilishini inobatga olish muhim. Bu, albatta, ijodkorning o'ziga xos yondashuvdir. Zero, rus tilidagi har bir so'zning o'zbek tilida mukammal ekvivalenti mavjud emas. Har bir xalqning o'ziga xos iboralari, so'zlari mavjud.

Tarjimon oq she'r shaklida yozilgan she'rlarni ham barmoq vaznida o'giradi, ayni paytda, barmoq vaznining imkoniyatidan foydalanib, asliyat ruhini berishga harakat qiladi. “Xarobadagi yozuv” (“Надпись в руине”) she'ri va “Bir so'z” (“Одно слово”) poemasi shular jumlasidandir.

“Xarobadagi yozuv” asarida xalq – tarixni harakatlantiruvchi kuch, yer yuzidagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi deb talqin qilingan.

Tarjimon har bir misra ustida jiddiy izlangani va asarni mohirlik bilan tarjima qilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ushbu she'rda “yegipetskaya rabota” so'zi ishlatilgan. Uni so'zma-so'z tarjima qilsak, “misrcha ish” degan tushinarsi birikmaga duch kelamiz. O'zbek tilida bunday ifoda yo'q. Bu o'rinda Misrning oftobli yurt ekanligi va yerni tandirdek isitadigan haroratda ishlash qiyinligiga urg'u berilyapti. Tarjimon bu birikma ishlatilgan qo'shmisrani:

Misrning o't – jazirasida Og'ir ishda beradilar jon, – tarzida o'girib, mazmunni to'liq ochib berolgan.

Dramatik asarning lirik asarlar tarjimasidan farq qiluvchi xususiyatlari Abdulla Oripov tarjimasi misolida. Lesya Ukrainaning “Mag'oralarda” dramatik poemasida tasvirlangan voqea-hodisalar eramizdan avvalgi 2-asrda davrida yuz beradi. Asarda mehnatkashlar xo'jayin zulmiga so'zsiz itoat qilishi kerak, degan aqida rad etiladi, xalq adolatsizlikka, jabr-zulmga qarshi faol kurashga chorlanadi.

Abdulla Oripov o‘z tarjimasida ana shunday falsafiy mazmunni, Prometey ruhiga qo‘l bergan neofit–qul obrazini, xalqini din nomidan qo‘rqitib, aldab kelayotgan ruhoniylar obrazini asliyatdagidek qilib san’atkorona o‘giran.

Asliyatdagi tasvirlar, izohlar, harakatlar nasriy yo‘l bilan, dialoglar esa she’riy yo‘l bilan 5 turoqli yambda yozilgan. Tarjimada ham xuddi shunday usul tanlangan. Asliy matnda ibora, maqol, matallar umuman ishlatilmagan bo‘lsa-da, asar kompozitsiyasining murakkabligi, qolaversa, uzoq o‘tmish mavzusida ekanligi tarjimani ancha qiyinlashtiradi. Chunki, asar qahramonlari o‘z nutqida qadimgi Rimga taalluqli so‘zlarni qo‘llaydilar. Bular bir o‘qiganda tushunish qiyin bo‘lgan *патриций, преториансы, нестыр* kabi so‘zlardir [Ukrainka L., 1956].

A.Oripov asarning mazmun-mohiyatini, ohangini ifodalashda sinonim so‘zlarga alohida e’tibor bergan. Masalan: “Pust jenščina na sboriščax molchit”. So‘zma-so‘z tarjimada “женщина” ayol deb o‘girilishi mumkin edi. Ammo, ushbu so‘zning sinonimi – “zaifa” so‘zini qo‘llagan tarjimon aytilayotgan fikrning ta’sir kuchini oshirishga muvaffaq bo‘lgan. Tarjimonning sinonimlarni o‘rinli qo‘llashi ulardagi stilistik bo‘yoqni naqadar kuchli his qilishga imkon beradi:

*Не говори “вон тут” ил “где-то там”
Оно везде, где бог в смиренных душах.*

So‘zma-so‘z tarjimada *не говори* so‘zini *gapirma*, *so‘zlama* deb tarjima qilish mumkin. Lekin Abdulla Oripov bu so‘zni “shak keltirma” tarzida ifodasi kuchli va ta’sirli o‘girib, taqdim etadi.

*Shak keltirma, anov-manov joydami deb u,
Tangri bizning dilimizda, demak, har qayda.*

“Слово”ni o‘zbek tiliga “so‘z” deb tarjima qilish mumkin. “Слова господни” so‘zini o‘zbek tiliga “tangri so‘zi” deb o‘girsam, o‘rniga tushmagandek tasavvur uyg‘otadi. Tarjimada esa ushbu so‘z o‘zbek tilida – “kalom” deb juda o‘rinli qo‘llangan.

Yana asliyatda shunday misra bor: *Тогда мы верим, будет божий суд*. Ushbu misrani so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki unday holatda mazmun ochilmay, tushunarsiz bo‘lib qoladi. Abdulla Oripov bu misraning mazmunini juda mohirlik bilan beradi: *Shunday bo‘lar, mahshar kelar, oxirat kelar*.

Tarjimon o‘xshatishlarga alohida e’tibor qaratgan: *Что молоду, как нищий, побираюс*. Sozma-so‘z tarjima qilinganda, “Tilanchidek tilanayapman yoshligimdan oq” deyish mumkin bo‘lardi. Lekin tarjimada “chol” so‘zining kiritilishi matnning ta’sir doirasini kuchaytirgan, ya’ni: *Tilanchi chol bo‘lib qoldim yoshligimdan oq*.

Har qanday millatning, xalqning yoki biror bir tilning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan so‘zlar bor. Ularni ikkinchi tilga tarjima qilish ancha qiyin. Masalan, qadimgi Rimda boy zodagonlar, ya’ni oqsuyaklarni “patritsiy” hech qanday huquqi bo‘lmagan tabaqalarni “plebey”, qadimgi Rim askarlari boshliqlarini va imperatorlarning imtiyozli shaxsiy qorovulligidagi lashkar jangchisini “pretosrianes” deb ataganlar.

Tarjimada bu shunday holicha qo‘llansa, kitobxon tushunmasligi mumkin. Shuning bois tarjimon bu so‘zlarning o‘zbek tilidagi ekvivalenti – ushbu tilda shu so‘z-

larga mos keladigan soʻzlarni qoʻllagan. “Patritsiy”ni mansabdor ruhoniylar, “plebey”ni huquqsizlar, baʼzi oʻrinlarda qullar deb oʻgirilgani asar mazmun-mohiyatini yetkazishda muhim rol oʻynaydi.

Asarda shunday soʻzlar ham mavjudki, ularga oʻzbek tilida ekvivalent topib boʻlmaydi. Masalan, “xoʻja”, “said” soʻzlari faqat musulmonlargagina xos soʻzlardir. Xristian dini haqida gapirilayotganda, bu soʻzlarni qoʻllash, bizningcha, toʻgʻri emas. Tarjimon esa koʻp oʻrinlarda bu soʻzlarni qoʻllagan.

Asliyatda: *Нем ни хозяев, ни рабов!* [Ukrainka L., 1952].

Tarjimada: *Qul va xoʻja yoʻq derdingku u yoqda, axir?* [Ukrainka L., 1972].

Tarjimada “владыка” (hokim, hukmdor, xoʻjayin) “xoʻja” deb oʻgirilgan. “Xoʻja” soʻzi bu yerda mazmunan toʻgʻri kelmaydi. Oʻzbek tilida ushbu soʻzga toʻgʻri keladigan soʻzlar, sinonimlar talaygina: hukmdor, podshoh, xoʻjayin, boyvachcha, ruhoniylar kabi...

Asliyatda: *Без настыря, без сторожа – владыки* [Ukrainka L., 1952].

Tarjimada: *Xoʻjalarsiz, hazratlarsiz va saidlarsiz,*

Bitta erkin jamoaga aylantirajak [Ukrainka L., 1972].

Tarjimada diniy atamalarni milliyalashtirilishiga sabab – matnning oʻzbek kitobxoniga tushunarliroq boʻlish istagidir. Chunki, oʻzbeklar islom atamaları mazmun-mohiyatini yaxshi tushunadilar. Tarjimada bunday holatga ana shu nuqtai nazar-dan yoʻl qoʻyilgan.

XULOSA

Lesya Ukrainka asarlarining oʻzbek tiliga tarjima qilinishi adabiyotimiz xazinasiga, tarjimachiligimiz ravnaqiga munosib hissa boʻlib qoʻshildi. Bu tarjimalar Lesya Ukrainka asarlarini oʻzbek kitobxoniga tanishtirishdagi dastlabki qadamlardir. Bir qancha turkumlari, yirik dramatik asarlari, shuningdek, shoh asari – “Oʻrmon qoʻshigʻi” hamda prozasi oʻz tarjimonlarini kutmoqda.

Oʻzbek kitobxonlariga Lesya Ukrainka asarlarini yetkazish maqsadidagi dastlabki saʼy-harakatlar, ayrim kamchiliklari boʻlishiga qaramasdan, quvonarli holdir.

Ayniqsa, Zulfiya, Shuhrat, Yerkın Vohidov, Abdulla Oripov bu borada juda katta kuch sarf qilib, goʻzal tarjima namunalari yaratganlar. Ular oʻz talanti va yuksak didi bilan toʻgʻri yoʻl tutib asliyat mazmuni va ritmini uygʻunlikda berishga muvaffaq boʻlganlar. Mazmunga xos ritmni berish uchun oʻzbek sheʼriyatidagi barmoq vazni-ni-ni-ni turli miqdorli boʻgʻinlaridan keng va oʻrinli foydalanganlar.

Mazmun va shakl birligi Rauf Parfi, Jumanioy Jabborov, Sayyor, Maʼruf Jalil kabi shoirlarning baʼzi tarjimalarida oʻzgacharoq namoyon boʻlgan. Masalan: Rauf Parfi asarning mazmunini yaxshi yetkazib bergan, badiiy ifodalarni mohirlik bilan oʻgʻirgan, lekin hamma tarjimalari 9 boʻgʻinli barmoq vaznida. Maʼruf Jalil esa yagona prinsip, yaʼni misrama-misra tarjima qilish prinsipiga suyanib qolgan. Sayyor, Jumanioy Jabborov tarjimalarida shu kabi jihatlari mavjud.

Oʻzbek tarjimachiligida Lesya Ukrainka asarlari tarjimalariga bagʻishlangan tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan oʻrin olgan ushbu sanʼatkor asarlarining oʻzbekcha tarjimalari ham ham oz.

Lesya Ukrainka asarlarini o'zbek tiliga o'girish va bu borada tadqiqotlar olib borish, tarjimonlar xizmatini obyektiv baholash tarjimashunosligimizning navbatdagi vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2017, 8-fevral). "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. *Xalq so'zi*, 8.
2. Abdullaev, M., Abdullaeva, M., Abdurazzoqova, G. (1998). *Mustaqillik izohli ilmiy-ommbop lug'at*. Toshkent: Sharq.
3. Aznaurova, R. (1961). Badiiy tarjimalarning asosiy problemalari. "*Tarjima san'ati*" kitobida. Toshkent: O'zSSR Davlat nashriyoti.
4. Baratashvili, M. (1971, 5-mart). Velikaya doch Ukraini. *Literaturnaya*.
5. Deych, A.I. (1954). *Lesya Ukrainka*. Moskva: Goslitizdat.
6. Inog'omov, R. (1971, 25-fevral). So'nmas iste'dod. *Sovet O'zbekistoni*.
7. Ojegov, S.I. (2006). *Tolkoviy slovar russkogo yazika*. Moskva.
8. Oleynik, M. (1966). *Povest "Oderjimaya"*. Moskva: Sovetskiy pisatel.
9. Oxrimenko, P.P., Oxrimenko, O.G. (1970). *Ukrainka i mirovaya kultura*. Moskva.
10. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.
11. Rashidov, A. (1972). *Lesya Ukrainka*. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
12. Salomov, G., Komilov, N., Salimova, Z. (1979). *Tarjimon mahorati*. O'zbekiston: Fan nashriyoti.
13. Salomov, G. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
14. Sharipov, J. (1959). *She'riy tarjimaning ba'zi masalalari*. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
15. Shuhrat. (1971, 25-fevral). *Lesya Ukrainka*. Toshkent oqshomi.
16. Sodiqova, M. (1972). *Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at*. Toshkent: Fan.
17. Tixonov, N. (1971, 5-mart). Velikaya doch Ukraini. *Literaturnaya*.
18. Ukrainka, L. (1956). *Sobranie sochineniy*. Moskva: Goslitizdat.
19. Ukrainka, L. (1971, 23-fevral) (To'lqin va Sherov Abdulla tarjimasi). *O'zbekiston madaniyati*.
20. Ukrainka, L. (1971) (Jabborov Jumaniyoz tarjimasi). *Guliston*, 2.
21. Ukrainka, L. (1971). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
22. Ukrainka, L. (1971, 25-fevral) (Muhammad Nosir tarjimasi). *Toshkent oqshomi*.
23. Vohidov, E. (1961). *O'tmish ertagi*. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
24. Zaripova, R. (2021). *Tarjima san'ati va tarjimon mahorati*. Toshkent: "Tafakkur qanoti" nashriyoti.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2017, February 8). Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021". *People's Word*, 8.
2. Abdullaev, M., Abdullaeva, M., Abdurazzakova, G. (1998). *Popular scientific dictionary with explanations of independence*. Tashkent: East.
3. Aznaurova, R. (1961). The main problems of literary translation. In *The Art of Translation*. Tashkent: State Publishing House of USSR.
4. Baratashvili, M. (1971). Great daughter of Ukraine. *Literature*.
5. Deich, A.I. (1954). *Lesya Ukrainka*. Moscow: Fiction.
6. Inogamov, R. (1971, February 25). Inexhaustible Talent. *Soviet Uzbekistan*.

7. Kuronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2013). *Dictionary of literary studies*. Tashkent: Akademnashr.
8. Ojegov, S.I. (2006). *Explanatory dictionary of the Russian language*. Moscow.
9. Okhrimenko P.P., Okhrimenko, O.G. (1970). *Lesya Ukrainka and world culture*. Moscow.
10. Oleinik, M. (1966). *Possessed* (story). Moscow.
11. Rashidov, A. (1972). *Lesya Ukrainka*. Tashkent: Literature and Art Publishing House.
12. Sadikova, M. (1972). *Russian-Uzbek phraseological dictionary*. Tashkent: Science Publishing.
13. Salomov, G., Komilov, N., Salimova, Z. (1979). *The skill of a translator*. Uzbekistan Science Publishing House.
14. Salomov, Kh. (1983). *Basis of translation theory*. Tashkent: Teacher.
15. Sharipov, J. (1959). *Some issues of poetic translation*. Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.
16. Shuhrat. (February 25, 1971) Lesya Ukrainka. *Tashkent evening*.
17. Tikhonov, N. (1971, March 5). Great daughter of Ukraine. *Literature*.
18. Ukrainka, L. (1956). *Collected works*. Moscow: Fiction.
19. Ukrainka, L. (1971) (Translation by Jabborov Jumaniyaz & Sherov Abdulla). *Guliston*, 2.
20. Ukrainka, L. (1971). *Selected Works*. Tashkent: Gafur Gulam Publishing House of Literature and Art.
21. Ukrainka, L. (1971, February 23). (Translation by Tulkin). *Uzbekistan culture*.
22. Ukrainka, L. (1971, February 25) (Translation by Muhammad Nasir). *Tashkent evening*.
23. Vohidov, E. (1961). *The tale of the past*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art.
24. Zaripova, R. (2021). *The art of translation and the skill of a translator*. Tashkent: The Wing of Contemplation.